

AHOLI BANDLIGI VA UNI TA'MINLASHNING MAMLAKAT IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Muslimbek MUZAFFAROV,
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya

Maqolada bugungi zamonaviy sharoitlarda aholi bandligi va uni ta'minlash masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, aholi bandligini ta'minlashning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, iqtisodiy taraqqiyot, aholi samarali bandligi, raqobat, mehnat bozori, infratuzilma.

ЗНАЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ И ЕЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СТРАНЫ

В статье рассмотрены вопросы занятости населения и ее обеспечения в современных условиях. Также освещается значение обеспечения занятости населения в экономическом развитии страны.

Ключевые слова: занятость, экономическое развитие, эффективная занятость населения, конкуренция, рынок труда, инфраструктура.

THE IMPORTANCE OF EMPLOYMENT AND ITS PROVISION IN THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT

The article examines the issues of employment and its provision in today's modern conditions. Also, the importance of ensuring the employment of the population in the economic development of the country is highlighted.

Key words: employment, economic development, productive employment of the population, competition, labor market, infrastructure.

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimning normal ishlashi fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularni qondirish va ularga daromad yoki boshqa mehnat daromadlarini olib kelish bilan bog'liq bo'lgan yetarlicha faol faoliyatini nazarda tutadi. Iqtisodiy fanda bunday faoliyat turi "bandlik" sifatida aniqlandi.

Cheklangan resurslar sharoitida mehnat bozori subyektlari xatti-harakatlarining nazariy asoslarini, faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini hamda iqtisodiy tizimlarning barcha darajalarida bandlikning mohiyati va mazmuni, namoyon bo'lish shakllarini o'rganish sohaga oid ko'plab adabiyotlarda atroflicha tadqiq etilgan.

Globallashuv va iqtisodiy jarayonlarning integratsiyalashuvi jarayonlarida mehnat bozorini muammolarini o'rganish, ishsizlikni pasaytirish, aholi bandligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish hisobiga iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni rag'batlantirish asosida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida asosiy muammolardan biri hisoblangan aholi, avvalambor, yoshlar bandligini ta'minlash imkonini bermiqda. Demografik jarayonlar natijasida mehnat resurslari sonining ortib borishini, bu esa, o'z navbatida, mehnat bozorini tartibga solish va aholi bandligini ta'minlash hamisha obyektiv ahamiyat kasb etadigan masalalardan ekanligini namoyon etmoqda.

Shu sababli, aholi bandligi hamda uni ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Bandlik va ishsizlik masalalari uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda. Ushbu ikki hodisa ham jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, birinchi navbatda, mehnat taqsimoti va kasbiy faoliyatni institutsionalizatsiya qilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan va qoida tariqasida daromad (mehnat daromadi) olib keladigan faoliyatidir.

Ish bilan bandlikni iqtisodiy kategoriya sifatida tavsiflash, agar u aholining faol qismi ishlab chiqarish vositalari bilan bog'liq bo'lgan mehnatga bevosita tatbiq etish jarayonida o'rganilsa va ish bilan bandlik ishlab chiqarish munosabatlari tizimida ko'rib chiqilsa o'zini oqlaydi. “Bandlik erishilgan rivojlanish darajasini, amalga oshirilgan ishlab chiqarish omili sifatida jonli mehnat hissasini aks ettiradi”⁵.

Shu bilan birga, bandlik ijtimoiy xususiyatga ega ishlab chiqarish, bu mehnat obyektlarini o'zgartirish uchun ma'lum bir fazilatlariga ega bo'lgan ishchilarning birgalikdagi faoliyatini anglatadi⁶. Shunday qilib, bandlik – bu ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning o'zaro munosabatlarini amalga oshirish mexanizmi bo'lib, ya'ni u ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya vazifasini bajaradi hamda uni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – mehnat resurslarining ishlab chiqarish vositalari bilan bog'liqligi deb ta'riflash mumkin.

Shuningdek, A.E. Kotlyarning fikricha, “bandlik mehnatdan farqli o'laroq, ma'lum bir ish joyidagi odamlarning faoliyati bilan taqqoslanmaydi, chunki u mehnatga layoqatli aholi qanchalik ish bilan ta'minlanganligini va odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi”⁷.

⁵ Kyazimov K.G. Sodeystviye zanyatosti naseleniya v usloviyax krizisa / Kyazimov K.G., Govorova N.A., Samrailova Ye.K., Shapiro S.A., Veshkurova A.B. M.: Direkt-Media, 2015. 286 s.

⁶ Keneshbayeva Z.M., Omosheva B.I. Novaya strategiya zanyatosti naseleniya / Ekonomika i sovremennyy menedjment: teoriya i praktika. Ch 2. Novosibirsk: SibAK, 2012. S. 236-242.

⁷ Kotlyar, A.E. O ponyatii rynka truda / A.E. Kotlyar // Voprosy ekonomiki. – 1998. – №1. – S. 34-39.

G.E. Slezinger esa bandlikni mehnatga layoqatli aholining daromad olishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etish shakllari va usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida belgilaydi⁸.

Aholini ish bilan ta'minlashni tahlil qilishning muhim nazariy-uslubiy xususiyatlaridan biri – bu reproduktiv jarayonga qo'shilish, boshqasini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishning an'anaviy bosqichlari bilan bir qatorda mehnat bozori muammolarini o'rganishning zarurligini belgilaydi. Mehnat bozori keng, umumlashtirilgan ma'noda - bu aholining ish bilan bandligini shakllantirish va tartibga solishga, boshqa bozorlar (ishlab chiqarish vositalari, tovar va xizmatlar, kapital) bilan o'zaro munosabatlar sharoitida uni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, normalar va institutlar tizimidir.

Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning tuzilishi juda xilma-xil bo'lib, uni konkretlashtirish uchun bir qator tushunchalarni kiritishni talab qiladi, ulardan biri mehnat bozorini segmentatsiyalashdir. Mehnat bozorida vujudga keladigan jarayonlar, ya'ni mehnatni sotib olish va sotish, ish haqi, mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat munosabatlari tizimi bevosita segmentatsiya jarayoniga bog'liqdir.

Zamonaviy iqtisodiyotda kuzatilayotgan transformatsion jarayonlar sharoitida yetishib chiqayotgan kadrlarning samarali bandligini hamda ularni mehnat bozoriga moslashishini ta'minlash bugungi kunning obektiv vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartlardan biridir. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Xalqaro mehnat tashkilotining ko'rsatmalariga ko'ra, bugungi kunda bandlikni qo'llab-quvvatlash quyidagi omillar va muammolarni hisobga olgan holda belgilanadi:

- Aholining demografik tuzilishi va uning o'zgarishi tendensiyalari (aholining qarishi yoki yoshlar ulushining ko'payishi);
- Iqtisodiyotning tuzilishi;
- Norasmiy bandlikning tarqalish darajasi;
- Ish haqi tengsizligi;
- Karyera imkoniyatlari va ish haqidagi gender farqlari;
- Yoshlarning yuqori darajadagi ishsizligi.

⁸ Slezinger, G.E. Trud v usloviyax ryunochnoy ekonomiki / G.E. Slezinger. – M.: INFRA-M, 1996. – 51s.

Aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududiy tengsizliklarni barqarorlashtirish, mehnat bozorini tartibga solish mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning asosi hisoblanadi. Chunki, muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lgan YAIM (YAHM) hajmi aholi real daromadlari va turmush faravonligini ifodalovchi qator ijtimoiy ko'rsatkichlar bevosita bandlikni ta'minlash darajasi bilan bog'liq hisoblanadi.


Bandlik va ishsizlik dunyodagi markaziy muammolardan biridir. Har qanday davlatning makroiqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bandlikning yuqori darajasiga erishishdir. Ishsizlik, ayniqsa, bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tayotgan mamlakatlarda kuchayadi. Ishsizlik katta zarar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtirib, odamlarga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladi, shuningdek daromadning yo'qolishiga va natijada turmush darajasining pasayishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mehnat bozorida ishsizlarning 90%ga yaqini munosib ishga joylashishga ko'maklashish yuzasidan muhtojlik sezmoqda. Munosib ish o'rinlari – bu ishchilarga qiziqarli va qo'lidan keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lgan ish o'rinlaridir. Munosib ish joyiga ega bo'lish uchun mehnat bozorida ishchi kuchi ancha raqobatbardosh bo'lishi zarur. Ishlab chiqarishning yoki tashkilotda boshqarishning ratsional tashkil etilishi va modernizatsiyalashishi natijasida kadrlarning taqchilligi yuzaga kelmoqda. O'z vaqtida ish joyini o'zgartirish, qayta tayyorgarlik, bo'sh ish joylariga qabulning to'xtatilishi, kadrlarni ishdan bo'shatishga ijtimoiy yo'naltirilgan tanlab olishning amal qilishi, personalni qisqartirish yoki qabul qilishni rejalashtirish yo'li bilan ichki mehnat bozorini tartibga solishni zarurat etmoqda.

Aholining mehnat bozorida munosib o'rin topishi hamda shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat munosabatlarining to'laonli ishtirokchisi bo'la olishida mehnat bozorining tarkibiy komponentlari muhim o'rin egallaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilgan holda quyidagi 1.1-rasmda mehnat bozorining tarkibiy komponentlari umumlashtirilib ko'rsatilgan.

Mehnat bozorining tarkibiy komponentlarining asosiylarini tahlil qilar ekanmiz, bozor mexanizmlari, ya'ni talab va taklifning muvozanati aholining samarali bandligini ta'minlashning mezoni bo'lib xizmat qilishini asoslash mumkin.



1.1-rasm. Mehnat bozorining tarkibiy komponentlari⁹

Fikrimizcha, mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanganligi hamda faoliyatining samarali yo‘lga qo‘yilganligi yoshlarning bozor konyunkturasi talablariga tezda moslasha olishiga yordam beradi.

Mehnat bozori faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi esa bozor subyektlari orasida ziddiyatli masalalar kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi. Aholining samarali bandligi ta‘minlash bo‘yicha qabul qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va davlat dasturlarining mavjudligi esa aholi bandligini rag‘batlantirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda har yili aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda, shuningdek bo‘sh va kvotalanadigan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda, o‘zini o‘zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta‘sirchan chora tadbirlar olib borilmoqda.

“...Bandlik darajasini yangi bosqichga ko‘tarish, real ish haqining barqaror o‘sishiga ko‘maklashuvchi oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqa xo‘jaligi va xususiy biznesni qo‘llab-kuvvatlash hisobiga aholi bandligini ta‘minlash hamda fuqarolar oilaviy byudjeti daromadlarini oshirish”¹⁰ ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”¹¹ bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Bu borada mehnat bozorida ish bilan bandlikning egiluvchan, o‘z-o‘zini ish bilan bandligini ta‘minlash hamda masofaviy ish bilan bandlik shakllarini rivojlantirish, davlat-xususiy sherikchiligi asosida kichik sanoat zonalarini va qishloq

⁹ Muallif ishlanmasi

¹⁰ Prezident Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” 2021.-206 b.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

turistik klasterini tashkil etish, qishloq aholisining mobilligini oshirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida amalga oshirib kelayotgan islohotlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri – bu takomillashgan mehnat bozorini shakllantirish va uning samarali amal qilishini ta'minlash hisoblanadi. Respublikamizda ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan yoshlar orasida ishsizlar soni salmoqli miqdorga ega bo'lmoqda. Bunday holat mehnat bozorida aholining ish bilan bandligini ta'minlash, ularning ishsizligini kamaytirishning samarali usullari va mexanizmlarini tadqiq etishni talab qilmoqda.

Shuningdek, aholining ish bilan bandligiga ko'maklashish sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirish, ularning ishsizligini kamaytirishning ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mehnat bozorida aholiga mehnatni diversifikatsiyalash asosida talabni rag'batlantirish hamda chuqur tahlil va tadqiq etish natijasida ularning ish bilan bandligi darajasini oshirish bo'yicha tegishli ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga egadir.

Davlat uchun mehnat bozoridagi samarali bandlik quyidagilarda o'z aksini topadi:

- milliy iqtisodiyotda ishsizlik darajasining pasayishi, daromadning o'sishi, mahalliy ishlab chiqarishning taraqqiyoti, va raqobatbardosh iqtisodiyotning shakllanishi;
- aholi turmush darajasi farovonligining oshishi;
- mamlakatda ilm-fan va ilmiy texnikaviy rivojlanish;
- ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatining mavjudligi;
- korxona va tashkilotlarda xodimlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. Kyazimov K.G. Sodeystviye zanyatosti naseleniya v usloviyax krizisa / Kyazimov K.G., Govorova N.A., Samrailova Ye.K., Shapiro S.A., Veshkurova A.B. M.: Direkt-Media, 2015. 286 s.

3. Keneshbayeva Z.M., Omosheva B.I. Novaya strategiya zanyatosti naseleniya / Ekonomika i sovremennyy menedjment: teoriya i praktika. Ch 2. Novosibirsk: SibAK, 2012. S. 236-242.

4. Mirzakarimova M. Ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozorini muvofiqlashtirish yoshlar bandligi omili sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017-yil.